

**“DAVLAT RO‘YXATIDAN  
O‘TKAZILDI”**  
Toshkent shahar  
Adliya boshqarmasida  
2016-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ da  
№ \_\_\_\_\_

**“TASDIQLANDI”**  
Toshkent shahar “SHAROIT PLYUS”  
nogironlar jamoat birlashmasi  
ta’rischilarining  
2016-yil 24-noyabr  
9-navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi  
qarori bilan

**TOSHKENT SHAHAR “SHAROIT PLYUS”  
NOGIRONLAR JAMOAT BIRLASHMASINING**

**U S T A V I**

## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Toshkent shahar “SHAROIT PLYUS” nogironlar jamoat birlashmasi (keyingi o‘rinlarda - Birlashma deb yuritiladi) tashabbuskor fuqarolar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) oz qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti hisoblanadi.

1.2. Birlashma jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tashkil etilgan.

1.3. Birlashmaning rasmiy nomi:

- O‘zbek tilida: Toshkent shahar “SHAROIT PLYUS” nogironlar jamoat birlashmasi;
- rus tilida: Общественное объединение инвалидов города Ташкента «ШАРОИТ ПЛЮС»;
- ingliz tilida: Public Association of Disabled People of Tashkent City “SHAROIT PLUS”.

1.4. Birlashma o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi, “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda ushbu Ustavga muvofiq amalga oshiradi.

1.5. Birlashma belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan vaqtdan boshlab yuridik shaxs hisoblanadi hamda o‘zining mustaqil balansi, mol-mulki, bank muassasalarida milliy va chet el valyutalaridagi hisob raqamlari, rasmiy nomi yozilgan dumaloq muhri va burchak shtampi, ramziy belgisi hamda rasmiy veb-saytiga ega bo‘ladi.

1.6. Birlashma o‘z faoliyatida iqtisodiy, texnik va rivojlanish yo‘lini mustaqil belgilaydi. Mulkiy shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi, shuningdek, majburiyatlar olishi, sud da‘vog‘ar yoki javobgar maqomida bo‘lishi mumkin.

1.7. Birlashma davlat majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi. Davlat esa Birlashma majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi. Birlashma qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turini ushbu Ustavda belgilangan maqsadlar doirasida amalga oshirishi mumkin.

1.8. Birlashmaning alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko'maklashishi mumkin. Davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining Birlashma faoliyatiga aralashishiga, ayni paytda Birlashmaning davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

1.9. Birlashmaning tashkiliy-huquqiy shakli – Ma'naviy yoki boshqa nomoddiy extiyojlarini qondirish uchun o'z manfaatlarining mushtarakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolarning ixtiyoriy birlashmasi, jamoat birlashmasi hisoblanadi.

1.10. Birlashma o'z faoliyatini amalga oshiradigan hudud Toshkent shahri hisoblanadi.

1.11. Birlashma rahbar organining joylashgan yeri (pochta manzili): 100034, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Qorasaroy ko'chasi, 353-uy.

## **II. BIRLASHMANING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI**

2.1. Birlashma faoliyatining asosiy maqsadlari:

imkoniyati cheklangan shaxslar va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish va har taraflama rivojlanishlari uchun teng imkoniyatlar yaratishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, imkoniyati cheklangan shaxslarning o'z ijodiy imkoniyatlarini amalda qo'llashlari, aqliy va ma'naviy rivojlanishlari, ularning umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'z zamonasining munosib vakillari bo'lib yetishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, xayriya faoliyatini amalga oshirish va boshqalardan iborat.

2.2. Birlashma o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– jamiyatga qo'shila olmay, uyda o'tirib qolgan va kam ta'minlangan imkoniyati cheklangan shaxslarni o'zlariga bo'lgan ishonch, faollik, tashabbuskorlik va salohiyatini oshirish, qobiliyat va ko'nikmalarga ega bo'lish, vaziyatni borligicha qabul qilishga o'rgatish orqali ularning jamiyatga qo'shilishiga ko'maklashish;

– imkoniyati cheklangan shaxslarni mustaqil fikrlash, o'zlari uchun mustaqil qaror qabul qilish va mustaqil yashashga yo'naltirish. Mustaqil yashash ko'nikmasini orttirish;

– imkoniyati cheklangan shaxslarning kundalik hayotda va ish faoliyatlarida barcha bilan teng ravishda to'laqonli va samarali ishtirok etishlariga xalaqit beradigan turli jismoniy, ijtimoiy va atrof-muhit bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etish va ularga oqilona qulaylik yaratishga yo'naltirish;

– o'rta va oliy ta'lim, tibbiyot muassasalari, xususiy korxonalar, davlat muassasalari, jamoat birlashmalari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarida

imkoniyati cheklanganlik mavzusida seminar-treninglar olib borish va turli jismoniy, ijtimoiy va atrof-muhit bilan bog‘liq muammoli holatlarni bartaraf qilishda hamkorlikda ish olib borish;

– imkoniyati cheklangan shaxslarning umumiy ta‘lim muassasalarida barcha bilan birgalikda ta‘lim olishi g‘oyasini, ya‘ni inklyuziv ta‘limni ilgari surish va ularning bilim olishlariga har tomonlama ko‘maklashish;

– imkoniyati cheklangan shaxslarning mutaxassislikka ega bo‘lib, ishga joylashishi va natijada mustaqil hayotga qadam qo‘yib, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shishlariga ko‘maklashish;

– imkoniyati cheklangan **shaxslarning** jamiyatda ishtirok etishiga imkoniyat yaratish uchun ularni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, jumladan, shaxsiy yordamchi xizmati, imo-ishora tili tarjimoni xizmati, Brayl yozuvidagi nashrlar bilan ta‘minlash va boshqa qo‘shimcha xizmatlarni tashkillashtirish;

– imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yaratilgan xizmatlar, faoliyatlar va mahsulotlarni ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish;

– xayriya faoliyatini amalga oshirish, imkoniyati cheklangan shaxslar va ularning oila a‘zolariga moddiy yordam va homiylik yordamini ko‘rsatish;

– imkoniyati cheklangan fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni Birlashmaga a‘zolikka jalb qilish, ularning huquqlarini himoyalash, ularga har tomonlama yordam ko‘rsatish;

– Ustavda belgilangan maqsadlarga erishish va o‘zini-o‘zi mablag‘ bilan ta‘minlash uchun tadbirkorlik tuzilmalari tashkil qilish, o‘z faoliyatini yuritish uchun nashriyotlar tashkil etish;

– imkoniyati cheklangan shaxslarga aloqador bo‘lgan qonun hujjatlarining ishlab chiqilishida ishtirok etish, ularning muammolari bilan bog‘liq qonun loyihalariga tegishli takliflar kiritish, turli davlat loyiha va dasturlarida ishtirok etish;

– Toshkent shahri hududida, forum, konferensiya va boshqa tadbirlarni tashkillashtirish va o‘tkazishga ko‘maklashish;

– Ustavda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida chet el xayriya jamg‘armalari, uyushmalari va boshqa tashkilotlar bilan har tomonlama foydali shartnomalar tuzish;

– imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalovchi, ularning muammolari bilan shug‘ullanuvchi mahalliy va chet el tashkilotlarining tajribalarini o‘rganish, o‘z tajribalari bilan boshqa tashkilot vakillari o‘rtasida fikr almashish, do‘stlik aloqalarini o‘rnatish, bu sohaga taalluqli turli seminar va konferensiyalar tashkil qilish va ularda ishtirok etish;

– Birlashma manfaatlarini boshqa davlat va nodavlat tashkilotlarida ifodalash.

Birlashma qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa vazifalarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **III. BIRLASHMANING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

3.1. Birlashma quyidagi huquqlarga ega:

- o‘z a‘zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish;
- ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va Ijroiya organlariga takliflar kiritish;
- davlat hokimiyati va Ijroiya organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;
- o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatish;
- ommaviy axborot vositalarini ta‘sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;
- ustavda belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;
- o‘z ramziy belgilarini ta‘sis etish;
- o‘z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig‘ilishlar, umumiy yig‘ilishlar o‘tkazish.

Birlashma qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘ladi.

3.2. Birlashma quyidagi majburiyatlarga ega:

- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga rioya etish;
- o‘z mol-mulki va pul mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi axborot bilan tanishish erkinligini ta‘minlash;
- ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga o‘zi o‘tkazayotgan tadbirlarga erkin kirish imkonini berish;
- ro‘yxatdan o‘tkazuvchi, soliq va statistika organlariga o‘z faoliyati to‘g‘risida hisobotlar taqdim etishi shart.

Birlashma qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘ladi.

### **IV. BIRLASHMAGA A‘ZO BO‘LISH VA A‘ZOLIKDAN MAHRUM QILISH SHARTLARI VA TARTIBI, A‘ZOLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

4.1. Birlashmaga a‘zo bo‘lish ixtiyoriy hisoblanadi.

4.2. Birlashma a'zoriga 18 yoshga to'lgan va ushbu Ustavni tan oladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi yo'q shaxslar va chet el fuqarolari qabul qilinishi mumkin. Birlashma a'zoriga qabul qilish yakka va jamoaviy tarzda amalga oshiriladi.

4.3. Yakka tartibda a'zolikka kirish jismoniy shaxslarning arizasiga muvofiq amalga oshiriladi. Jamoaviy tarzda esa jamoaning arizasiga asosan amalga oshiriladi. Yakka yoki jamoaviy tartibda a'zolikka qabul qilish haqidagi ariza Birlashma raisi nomiga yoziladi va Kengash tomonidan ko'rib chiqiladi.

4.4. Birlashma a'zolidan yakka yoki jamoaviy tarzda chiqarish masalasi Birlashma Kengashi yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

4.5. Birlashma a'zolari teng huquqli hisoblanadi. A'zolikka qabul qilish va undan chiqarish masalalari Kengash yig'ilishi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

4.6. Birlashma a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- Birlashma faoliyati haqida ma'lumot olish;
- Birlashma tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish;
- Birlashmaning rahbar organlarini saylash va saylanish (Kengash raisligiga saylanish mazkur ustavning 5.3.1-bandi talabiga asosan);

- Birlashma rahbar organlariga uning faoliyatiga oid takliflarni kiritish va ularni ko'rib chiqish;

- ixtiyoriy a'zolikdan chiqish.

4.7. Birlashma a'zolarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- Birlashma Ustavi, nodavlat notijorat tashkilotlariga oid qonun hujjatlari talablariga amal qilish;

- kirish va a'zolik badallarini to'lash;

- Birlashmaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etish.

4.8. Mazkur Ustav va nodavlat notijorat tashkilotlariga oid qonunlarga amal qilmagan Birlashma a'zolari Ustavning 4.4-bandiga asosan a'zolikdan chiqariladi.

## **V. BIRLASHMA RAHBAR ORGANLARINING VAKOLAT DOIRASI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH TARTIBI**

5.1. Birlashma rahbar organlari:

- Umumiy yig'ilish;
- Kengash;
- Birlashma raisi;
- Taftish komissiyasi.

5.2. Birlashmaning oliy rahbar organi – Umumiy yig'ilish hisoblanadi.

5.2.1. Umumiy yig'ilish zaruratga qarab, ammo 5 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishlar Birlashma Kengashi yoki

Taftish-komissiyasining tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin. Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarni chaqirish to'g'risidagi taklif ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masalalar va Umumiy yig'ilishni tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqt hisobga olinib, sana ko'rsatilgan holda Birlashma raisiga yozma shaklda yuboriladi. Navbatdan tashqari Umumiy yig'ilish chaqirish to'g'risidagi taklifda ko'rsatilgan sanadan 1 oydan kechiktirmay chaqirilishi kerak. Umumiy yig'ilish qarorlari ochiq yoki yopiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng kelgan holda, hal qiluvchi ovoz Kengash raisiniki hisoblanadi.

#### 5.2.2. Umumiy yig'ilish vakolatlari:

- Birlashma Ustavini qabul qilish va tasdiqlash;
- Birlashma Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish va tasdiqlash;
- Birlashmani qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida qaror qabul qilish;
- Birlashma faoliyati ustidan nazorat olib borish;
- Birlashma faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- Birlashma faoliyatiga tegishli boshqa muhim masalalarni ko'rib chiqish;
- Kengash a'zolari va Birlashma raisini 5 yil muddatga saylash;
- Birlashma Taftish komissiyasini shakllantirish, Taftish komissiyasi raisi va a'zolarini 5 yil muddatga saylash;

– Birlashma raisi hamda Taftish komissiyasi hisobotlarini eshitish va tasdiqlashdan iborat.

5.2.3. Umumiy yig'ilishlar oralig'ida Birlashma faoliyatidagi rahbarlikni Birlashma Kengashi amalga oshiradi.

#### 5.3. Birlashma Kengashi:

5.3.1. Kengash a'zolari umumiy yig'ilishda ishtirokchilarining ko'pchilik ovozi bilan 5 kishidan kam bo'lmagan tarkibda 5 yil muddatga saylanadilar. Kengash raisi bir vaqtning o'zida Birlashma raisi hisoblanadi. Kengash raisi etib faqat nogironlik maqomidagi shaxs saylanishi mumkin.

5.3.2. Kengash yig'ilishlari har yilda kamida bir marta o'tkaziladi, ammo zaruratga qarab navbatdan tashqari yig'ilishlar ham chaqirish mumkin. Navbatdan tashqari Kengash yig'ilishlari Taftish komissiyasining tashabbusiga ko'ra yoki Kengash a'zolarining kamida uchdan birining talabi bo'yicha chaqiriladi. Navbatdan tashqari Kengash yig'ilishlarini chaqirish to'g'risidagi taklif ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masalalar va Kengash yig'ilishini tayyorlash uchun zarur bo'lgan vaqt hisobga olinib sana ko'rsatilgan holda Birlashma raisiga yozma shaklda yuboriladi. Navbatdan tashqari Kengash yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi taklifda ko'rsatilgan sanadan 1 oydan kechiktirmay chaqirilishi kerak. Kengash qarorlari qabul qilinishida ovozlar teng kelgan holda, Birlashma raisi hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi.

#### 5.3.3. Kengash vakolatlari:

- Umumiy yig‘ilish qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;
- Navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilish chaqirish;
- Birlashma ishchi organini tuzish va shakillantirish;
- Birlashma xodimlarining shtat jadvali hamda vazifalar taqsimotini tasdiqlash;
- Birlashmaning Ustavda belgilangan maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan hamkorlik dasturlari, tadbirlar rejalari va boshqa hujjatlarni tasdiqlash;
- Birlashmaning joriy rejalarni tasdiqlash va ularning ijrosini nazorat qilish;
- Birlashma strukturasi tuzish va tasdiqlash;
- Birlashma mulki va pul mablag‘larini tasarruf etish;
- Birlashmaga a‘zolikka qabul qilish va undan chiqarish masalalarini ko‘rib chiqish va a‘zolik badallari miqdorini belgilash;
- Umumiy yig‘ilishlarga tegishli masalalarni tayyorlash va kun tartibiga kiritish;
- Birlashmaning Ustav faoliyati yuzasidan umumiy yillik ish rejasini tasdiqlash;
- Birlashmaning navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilishlarni chaqirish;
- Birlashmaning tadbirkorlik sub’yektlarini qonunda belgilangan tartibda tashkil etish, ulardagi rahbarlarini tayinlash.

Kengash Birlashma faoliyati bilan bog‘liq boshqa masalalarni ham ko‘rib chiqishi mumkin.

#### 5.4. Birlashma raisi:

5.4.1. Birlashma raisi Umumiy yig‘ilish tomonidan 5 yil muddatga saylanadi.

#### 5.4.2. Birlashma raisi quyidagi vakolatlarga ega;

- Birlashma ishchi organini boshqarish;
- Kengash bilan birgalikda Birlashma xodimlarining shtat jadvali va vazifalarini taqshimlash;
- Birlashmaning kundalik ishiga umumiy rahbarlik qilish;
- Birlashma nomidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ishonchnomasiz harakat qilish;
- Birlashma nomidan shartnomalar tuzish va qonun doirasidagi boshqa huquqiy harakatlarni amalga oshirish;
- Birlashmaning buxgalteriya hisobini yuritish; smeta, balans, byudjet hujjatlarini tasdiqlash;
- Birlashma xodimlarini rag‘batlantirish, rag‘batlantirish miqdori va tartibini belgilash;



– mustaqil ravishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq Birlashma apparati xodimlarini ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish masalalarini hal etish, ichki mehnat tartib-qoidalarini tasdiqlash;

– rahbar organlarning qarorlarini nazorat qilish va ijrosini belgilangan muddatlarda ta‘minlash;

– Umumiy yig‘ilishda qabul qilingan qarorlar ijrosi yuzasidan kundalik ish yuritish va vazifalar ijrosi nazoratini olib borishdan iborat.

#### 5.5. Birlashma Taftish komissiyasi:

5.5.1. Birlashma Taftish komissiyasi a‘zolari va uning raisi Umumiy yig‘ilish tomonidan ko‘pchilik ovoz bilan 3 kishidan kam bo‘lmagan tarkibda 5 yil muddatga saylanadi.

5.5.2. Taftish komissiyasi a‘zosi bir vaqtning o‘zida Birlashmaning boshqa rahbar organi a‘zosi bo‘lishi mumkin emas.

#### 5.5.3. Birlashma Taftish komissiyasi vakolatlari:

– Birlashma Taftish komissiyasi raisi Birlashma faoliyatida bevosita ishtirok etadi;

– Birlashma Taftish komissiyasi Birlashmaning moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan, Umumiy yig‘ilish va Kengash qarorlarining bajarilishi hamda mazkur Ustavda belgilangan vazifalarning bajarilishi ustidan, Birlashma moliyaviy faoliyatining natijalari hisobi ustidan umumiy nazorat olib boradi;

– Birlashma moliya-xo‘jalik faoliyati Taftish komissiyasi tomonidan 1 yilda kamida bir marta taftishdan o‘tkazadi;

– taftish jarayonida Taftish komissiyasiga Birlashmaning moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan barcha zarur hujjatlar va ma‘lumotlar taqdim qiladi;

– Taftish komissiyasi taftish natijalari yuzasidan yozma hisobotni 1 oydan kechiktirmay Umumiy yig‘ilishga taqdim etadi.

– Navbatdan tashqari Umumiy yig‘ilish chaqirish;

#### 5.6. Ishchi organi:

5.6.1. Ishchi organi Kengash tomonidan tuziladi va shakillantiriladi.

5.6.2. Ishchi organi quyidagi vakolatlarga ega.

– Birlashmaning smeta, balans, budjet hujjatlarini ishlab chiqish;

– imkoniyati cheklanganlik mavzusida seminar – treninglarni tashkillashtirish;

– imkoniyati cheklangan shaxslarning ehtiyojlaridan kelib chiqib madaniy va ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish.

## **VI. MEHNAT MUNOSABATLARI**

6.1. O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonunlari, shuningdek, mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy sug'urta qildirish to'g'risidagi qonunlari Birlashma apparati xodimlariga nisbatan joriy etiladi.

6.2. Birlashma xodimlarining mehnat munosabatlari ichki mehnat tartib-qoidalarida belgilanadi.

## **VII. BIRLASHMANING HISOB VA HISOBOTI**

7.1. Birlashma o'z faoliyati natijalari hisobini yuritadi hamda ro'yxatdan o'tkazuvchi, soliq va statistika organlariga belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi.

7.2. Birlashmaning moliya-xo'jalik faoliyati amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vakolatlari doirasida soliq, moliya va boshqa davlat idoralari tomonidan, shu jumladan, zarurat tug'ilganda, auditorlar tomonidan tekshiriladi.

## **VIII. BIRLASHMANING PUL MABLAG'LARI VA BOSHQA MOL-MULKNI SHAKLLANTIRISH MANBALARI**

8.1. Binolar, inshootlar, turar joylar, uskunalar, inventar, pul mablag'lari, shu jumladan, chet el valyutasidagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk Birlashmaning mulki hisoblanadi.

– Birlashma texnik ishlab chiqarish xarakterida bo'lmagan mulklarni sotib olishi, ijaraga olishi yoki bepul foydalanishi;

– Kengashning qaroriga asosan korxonalar, muassasa, tashkilot va jismoniy shaxslarga o'z ixtiyoridagi turli ko'char yoki ko'chmas mulkni sotishi, ijaraga berishi, vaqtinchalik foydalanish uchun berishi yoki qarzga berishi;

– belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining qonunlar majmuiga muvofiq, bank, korxonalar, boshqa tashkilotlar, shu jumladan, xorijiy tashkilotlardan barcha turdagi ssuda va kreditlar olishi mumkin.

8.2. Birlashmaning mulki qonun bilan muhofaza qilinadi.

8.3. Birlashma o'z majburiyatlari yuzasidan qonunlarga muvofiq undirilishi mumkin bo'lgan mol-mulki bilan javob beradi.

8.4. Birlashmaning mulki va moliyaviy mablag' bilan ta'minlanish manbalari quyidagilardan tarkib topadi:

– kirish va a'zolik badallari;

- muassislardan, qatnashchilardan (a’zolardan) bir martalik va muntazam ravishda keladigan tushumlar;
- ixtiyoriy mulkiy badallar, homiylik va xayriya yordamlari, ehsonlar;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan, faqat Ustav maqsadlari uchun ishlatiladigan daromadlar (foyda);
- qonunlarda taqiqlanmagan boshqa tushumlar.

## **IX. BIRLASHMA FAOLIYATINI TO’XTATIB QO’YISH TARTIBI**

9.1. Birlashma faoliyati u O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonun hujjatlarini buzgan taqdirda sud tomonidan to‘xtatib qo‘yilishi mumkin.

## **X. BIRLASHMANI QAYTA TASHKIL QILISH VA TUGATISH TARTIBI**

10.1. Birlashma Umumiy yig‘ilish qarori bilan qaytadan tashkil qilinishi mumkin. Birlashma qayta tashkil qilingandan so‘ng qaytadan tuzilgan Birlashma Ustavi “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasiga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish uning yuqori organi qaroriga binonan birlashish, qo‘shilish, bo‘linish, ajralib chiqish va o‘zgartirish bilan amalga oshiriladi. Nodavlat notijorat tashkilotini qayta tashkil etish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

10.2. Umumiy yig‘ilish qaroriga muvofiq yoki sud tartibida amalga oshiriladi. Nodavlat notijorat tashkilotini tugatish qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Birlashma faoliyatini ixtiyoriy tugatish tartibi:

–Umumiy yig‘ilishning qarorlari bilan ochiq yoki yopiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng kelgan holda, hal qiluvchi ovoz Kengash raisiniki hisoblanadi;

–Birlashmani tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan Birlashmaning Umumiy yig‘ilishi ro‘yxatdan o‘tkazuvchi adliya organi bilan kelishgan holda tugatish komissiyasini tayinlaydi.

10.3. Tugatilgan Birlashma mol-mulki Ustavida ko‘zda tutilgan maqsad yo‘lida sarflanadi. Kreditorlarning talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulk Birlashma qatnashchilari (a’zolari), shuningdek, rahbar organlarning a’zolari yoki Birlashmaning xodimlari o‘rtasida taqsimlanishi mumkin emas.

## **XI. USTAVGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI**

11.1. Birlashma Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar Umumiy yig'ilishning qaroriga asosan qonunda belgilangan tartibda kiritiladi.

11.2. Ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

11.3. Mazkur Ustavda nazarda tutilmagan qoidalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan tartibga solinadi.

**Raximova Muxabbat Axrarovna**

**Imzo** \_\_\_\_\_